O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘l yozma huquqida
UDK: 338.47:656-048.23(575.1)

SAIDMURODOV FERUZ SODIQJON O‘G‘LI

TRANSPORT TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent Shakirova F.B

TOSHKENT-2025

MUNDARIJA

KIRISH		**3**
I BOB.	**TRANSPORT TIZIMI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI**	**12**
1.1	Transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari	12
1.2	Temir yo‘l va avtomobil transporti iqtisodiy samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar	23
1.3	Dunyo transport tizimining rivojlanish tendensiyalari va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari	39
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar	50
II BOB.	**O‘ZBEKISTON TRANSPORT TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI**	**52**
2.1	Temir yo‘l va avtomobil transporti tizimining iqtisodiy samaradorligi tahlili	52
2.2	Transport tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash	64
2.3	Transchegaraviy infratuzilma va logistika klasterlari asosida transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari	77
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar	87
III BOB	**TRANSPORT TIZIMI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**	**89**
3.1	Davlat-xususiy sheriklik asosida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish yo‘llari	89
3.2	Transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion yo‘nalishlari	104
3.3	Transport tizimi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarinig prognoz variantlari	118
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar	131
XULOSA		**133**
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR		**136**
ILOVALAR		**152**

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida transport tizimi global iqtisodiy aloqalarni ta'minlashda, milliy bozorlarning raqobatbardoshligini oshirishda va resurslarning oqilona taqsimlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xususan, "transport sohasining samaradorligi iqtisodiy o'sishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatib, yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibidagi transport xizmatlarining ulushi rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 8-12% atrofida shakllanmoqda. AQSH va Germaniyada bu ko'rsatkich mos ravishda 8,5% va 9,2% ni tashkil etmoqda"[1]. Bu borada transport infratuzilmasining rivojlanganligi va samarali faoliyat ko'rsatishi nafaqat sanoat mahsulotlarining o'z vaqtida yetkazilishini, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlari ta'minoti va tashqi savdo hajmining ortishini ta'minlaydi. Xususan, Jahon bankining 2023 yilgi hisobotiga ko'ra, "transport infratuzilmasi sifati bo'yicha yuqori darajaga erishgan mamlakatlar, masalan, Singapur (4,3 ball), Germaniya (4,2 ball), va Yaponiya (4,2 ball) kabilarda logistika samaradorlik indeksi (LPI – Logistics Performance Index) bo'yicha ko'rsatkichlar ham yuqori darajada kuzatiladi"[2]. Shu bilan birga, transport infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda tashqi savdo aylanmasining yalpi ichki mahsulotga nisbati (trade-to-GDP ratio) 80-120% dan yuqorini tashkil etayotgani qayd qilinmoqda. Bu esa transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq etishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahon miqyosida transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar asosan logistika jarayonlarini optimallashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Ustuvor yo'nalishlar qatorida intellektual transport tizimlarini (ITS) rivojlantirish, "yashil transport" va barqaror logistika modellarini ishlab chiqish, energiya tejamkor va ekologik toza transport turlarini keng qo'llash

[1] World Bank (2023). Transport Services and Economic Growth: Global Indicators and Trends, World Bank Annual Report. Washington DC. 2023 yil. www.worldbank.org.
[2] World Bank Logistics Performance Index (2023). Logistics Performance Index Ranking Report. The World Bank Group, 2023 yil. www.lpi.worldbank.org.

masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda transport koridorlarini integratsiyalash va mintaqaviy bog‘liqlikni kuchaytirish, elektron tijoratning o‘sishi sharoitida logistikani samarali tashkil etish hamda yirik shaharlarda intellektual harakatlanish modellarini joriy qilish masalalari ilg‘or yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Bundan tashqari, transport samaradorligini baholashda “time-cost-distance” indikatorlaridan foydalanish va uni global savdo jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida transport tizimini kompleks rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini yuksaltirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida transport sohasining iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish va samaradorlikni oshirishga oid qator aniq vazifalar belgilangan. Jumladan, strategiyada temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish, transport-logistika xizmatlari bozorini sifat va ko‘lam jihatidan kengaytirish, tashqi savdo hamda tranzit tashuvlar hajmini oshirish maqsadida «yashil koridorlar» tizimini shakllantirish va tranzit yuk tashish ko‘rsatkichini 15 million tonnadan oshirish kabi aniq maqsadlar belgilab qo‘yilgan. Mazkur vazifalarning ijrosini ta’minlash esa transport tizimining iqtisodiy samaradorligi hamda milliy va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun fundamental shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotning barqaror taraqqiyoti uchun muhim strategik vazifa bo‘lib, bu vazifani hal qilish uchun sohaning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini zamon talablari asosida takomillashtirish, zamonaviy innovatsion va texnologik yechimlarni keng joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 dekabrdagi PF-213-son “O‘zbekiston Respublikasi transport tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 28 fevraldagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to‘g‘risida”, 2019 yil 1 fevraldagi PF-5647-son “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024 yil 15 fevraldagi PQ-88-son “Yo‘l transporti sohasini raqamlashtirish va ekotransport loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tarmoq iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari soha maktabi vakillari hisoblangan P.Romer, R.Xarrod, Ye.Domar, D.Xemberg, R.Solow, Y.Shumpeter, V.Rostou tomonidan o‘rganilgan[3]. Lekin mazkur tadqiqotlar fundamental tavsif kasb etib, masalaga umumiy yondashilgan va aynan temir yo‘l tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish muammolari o‘rganilmagan.

MDH olimlaridan ushbu sohada I.Belov, G.Bubnova, G.Vovk, V.Galaburda, O.Efimova, A.Zaysev, A.Kaplan, R.Kojevnikov, V.Kozirev, V.Kolesnikov, B.Lapidus, L.Leviskaya, B.Lyovin, B.Anikin, E.Gagarskiy, V.Gerami, V.Dibskaya, A.Kirillova, A.Kolik, P.Kurenkov, E.Mamayev, L.Mirotin, V.Morgunov, D.Novikov, V.Sergeyev, L.Fyodorov va boshqalar tomonidan mintaqa transport va logistika kompleksining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari chuqur o‘rganilgan va izohlangan[4].

---

[3] Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. *Journal of Political Economy, 98*(5), S71 – S102.; Domar Ye. «Ocherki po teorii ekonomicheskogo rosta»-M.: ME i MO, 1956 g.; Xemberg *D.* «Rannyaya teoriya rosta: modeli Domara i Xarroda». Sovremennaya ekonomicheskaya mыsl. Seriya «Ekonomicheskaya mыsl Zapada» / Pod red. S. Vayntrauba, V.S. Afanasyeva, R.M. Entova. M.: Progress, 1981; Solow, R. (1956). A contribution to the theory of economic growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65-94. https://doi.org/10.2307/1884513.; Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. M.: Progress, 1982.; Rostow W. Politics and the Stages of Growth. 1971.

[4] Belov, I. V. Matematicheskiye metodы v planirovanii na jeleznodorojnom transporte: uchebnik dlya vuzov j.-d. transp. I. V. Belov, A. B. Kaplan. – 2-e izd., pererab, i dop. – M.: Transport, 1972. – 248 s: a-il.; Bubnova, G. V. Logisticheskoye vzaimodeystviye kompaniy-operatorov pri organizasii vagonopotokov po ekonomicheskim kriteriyam. G. V. Bubnova, A. A. Yerofeyev, P. G. Korenev // Ekonomika jeleznыx dorog. – 2012. №10. S-85.; Vovk, A. A. Razvitiye sistemы pokazateley ispolzovaniya podvijnogo sostava.; A. A. Vovk, V. B. Litovchenko // Ekonomika jeleznыx dorog. 2014. № 2. S-76-79; Galaburda, V. G. Yedinaya transportnaya sistema: Ucheb. dlya vuzov / V. G. Galaburda, V. A. Persianov, A. A. Timoshin [i dr.] ; pod red. V. G. Galaburdы. – 2-e izd. s izmen.i dopoln. – M.:

O‘zbekiston olimlaridan G.Samatov, M.Ikramov, K.Uldjaboev, Y.Qorrieva, A.Shermuxamedov, K.Ziyadullaev, M.Irisbekova, A.Zohidov, A.Gulamov, V.Yarashova va J.Fayzullayev va boshqalar mamlakat transport tizimini samarali rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratganlar[5]. Shuningdek, transport kommunikatsiyalari muammolarini siyosiy fanlar kesimida tadqiq etgan tadqiqotchilar qatoriga J.Artikov, I.Qodirov, R.Sarbaev va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan[6].

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlarda transport tizimini boshqarish mexanizmi muammolari, uning makroiqtisodiy jihatlari va temir yo‘l transporti korxonalarining asosiy kapitalini iqtisodiy nuqtai nazardan baholashda metodologik yondashuvlar tadqiq etilganligini ko‘rish mumkin. Bugungi kunda temir yo‘l transport tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish masalalari, transport va logistika sohalarini yagona tizim sifatida o‘rganish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shuningdek, transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish, transport tarmog‘ining rivojlanish jarayonlaridagi mavjud muammolarni aniqlash, ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni belgilash, uning samaradorlik va rivojlanish darajasini baholash yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar hamda transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish ilmiy doiralar oldida turgan ilmiy muammolardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim

---

Transport, 2001. – 303-s.; Yefimova, O. V. Ekonomicheskiye kriterii upravleniya vagonnым parkom / O. V. Yefimova, Ye. B. Baboshin, B. V. Igolnikov // Ekonomika jeleznых dorog. 2012. №5. S-46.:

[5] Samatov G‘.A. va boshqalar. Raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchliligi. – T.: ToshDAU nashr tahririyati bo‘limi, 2003. – 82 b; Ikramov M.A. Razvitiye avtomobilnых perevozok po Velikomu shelkovomu puti // Ekonomicheskoye vozrojdeniye Rossii, №4, 2010. –S. 28-36; Uldjaboyev K.U. Ekonomicheskaya reforma na jeleznodorojnom transporta – Toshkent, «Mexnat», 1999g.; Qorrieva Ya.K. O‘zbekistonning jahon bozoriga chiqishi uchun xalqaro yo‘laklardan samarali foydalanishning logistik transport muammolari. Iqt. fan. dok. ... dis. avtoref., Toshkent 2004; Shermuxamedov A.T. Velikiy shelkovыy put i transportnыe perevozki. FRG. – Berlin: Izd. LAP, 2012. - 90 c.; Shermuxamedov A.T. Velikiy shyelkovыy put i sovremennыe avtomagistrali. // Ekonomika i statistika. №6, 2005; Ziyadullayev K.Sh. Integratsiya transportnых kommunikatsiy Respubliki Uzbekistan v mejdunarodnuyu transportno-kommunikatsionnuyu sistemu // Sovremennыe metodы organizatsii biznesa i marketinga: Mejvuzovskiy sbornik. –SPb.: SZTU, 2005. –S. 101-106.; Irisbekova M.N. Marketing tamoyillari asosida transport xizmatlari bozorini optimallashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2017; Zohidov A.A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018. Gulamov A.A. Temir yo‘l kompaniyasining asosiy kapitalini iqtisodiy jihatdan baholash metodologiyasini takomillashtirish («O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ misolida); Yarashova V.K. O‘zbekiston transport tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy jihatlari. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2022; Fayzullaev J.S. Temir yo‘l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2022.

[6] Artiqov J.Yu. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va transkommunikatsiya muammolari. Siyosiy fan. nom. ... dis. avtoref. -Toshkent, 2005; Kodirov I. O‘zbekiston Respublikasi transport diplomatiyasi: muammolar va ularning yechimlari. Siyosiy fan.nom. ... dis. avtoref. Toshkent, 2005; Sarbayev R.M. Razvitiye transportnых kommunikasiy Sentralnoy Azii kak vajnыy faktor regionalnoy bezopasnosti.

muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-2-38 «Markaziy Osiyo mintaqasida xalqaro logistikani rivojlantirish» mavzusidagi (2017-2021 yy.) amaliy-ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

transport tizimi iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

tyemir yo‘l va avtomobil transporti iqtisodiy samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimini tadqiq etish;

dunyo transport tizimining rivojlanish tendensiyalari va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish;

O‘zbekiston transport tizimining iqtisodiy samaradorligi va rivojlanish tendensiyalari tahlilini olib borish;

transport tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash bo‘yicha uslubiy takliflar ishlab chiqish;

davlat-xususiy sheriklik asosida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar berish;

transport tizimi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarinig prognoz variantlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston avtomobil va temir yo‘l transportining iqtisodiy faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib transport tizimini samarali rivojlantirish jarayoni bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, funksional va tarkibiy baholash, SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, dinamik va statik, iqtisodiy-matematik kabi usullardan hamda tizimli, ehtimoliy-adaptiv yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqot ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “transport sohasida iqtisodiy samaradorlik” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mavjud resurslardan oqilona foydalanish asosida mahsulotlarning raqobat ustunligini oshirish va bozorda barqaror pozitsiyalarni egallash orqali xizmat sifatini va logistika jarayonlarini optimallashtirish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

transport tizimining amaldagi holatini “me’yoriy holat” (o‘sish va barqaror rivojlanishga mos), “inqiroz oldi holati” (hushyorlikni talab etuvchi holat) va “inqiroz holati” (tezkor islohotlar zarur bo‘lgan holat) ko‘rinishida tavsiflash orqali resurslar taqsimoti, investitsiya siyosatini yo‘naltirish va tarmoqdagi strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos yaratuvchi Z-score natijasi orqali belgilangan;

transport tizimining iqtisodiy samaradorlik indeksini baholash uslubi me’yorlashtirilgan qiymat va vazn koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda “zarar holati” (0,00-0,19), “past samaradorlik” (0,20-0,39), “o‘rtacha samaradorlik” (0,40-0,59), “iqtisodiy barqaror samaradorlik” (0,60-0,79), “strategik samaradorlik” (0,80-1,00) shkalalarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda transportga kiritilgan investitsiyalar hajmi, asosiy fondlar va yuk aylanmasi hamda yo‘lovchi aylanmasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida ular dinamikasining 2030 yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy va tashkiliy omillarning ta’sir darajasini aniqlash hamda samaradorlik indikatorlarining me’yoriy, inqiroz oldi va inqiroz holati qiymatlarini belgilash orqali transport tizimida iqtisodiy inqiroz holatlarini oldindan prognozlash, muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va tegishli choralarni ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan;

transport tizimi iqtisodiy samaradorligi darajasini takomillashtirilgan integral indeks mezonlari asosida baholash orqali sohada past va o‘rtacha samaradorlik holatlarini aniqlash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tezkor qarorlar qabul qilish imkoni ta’minlangan;

transport sohasida iqtisodiy samaradorlikka erishishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi investitsiyalar jalb qilish, xarajatlar nazoratini kuchaytirish va tarif siyosati

shaffofligini oshirishga yo‘naltirilgan normativ va myetodik asoslari takomillashtirilgan;

transport sohasida prognozlashning integratsiyalashgan iqtisodiy modeli asosida tarmoqqa investitsiyalar hajmi, asosiy fondlar, yuk va yo‘lovchi aylanmalari ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari asoslanib, sohaning barqaror o‘sishiga xizmat qiluvchi istiqbolli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda strategik boshqaruv tizimini shakllantirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tganligi, ishlab chiqilgan modellarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning transport tarmog‘iga vakolatli tashkilotlaridan o‘tganligi va tasdiqlanganligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tizimini iqtisodiy samaradorligini baholash va uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, transport-tranzit va tarif tizimi rivojlantirishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha tarmoq va hudud dasturlarini ishlab chiqish, soha faoliyatini rejalashtirish, samarali tashkil etish, transport tizimi istiqbollarini belgilash hamda “Transport iqtisodiyoti”, “Temir yo‘l transport korxonalari iqtisodiyoti”, “Transport korxonalarini rivojlantirish” fanlari bo‘yicha keys-stadilar, ma’ruzalar matni, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijadarini amaliyotga joriy etilishi. Transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “transport sohasida iqtisodiy samaradorlik” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mavjud resurslardan oqilona foydalanish asosida mahsulotlarning raqobat ustunligini oshirish va bozorda barqaror pozitsiyalarni egallash orqali xizmat sifatini va logistika jarayonlarini

optimallashtirish nuqtai nazaridan takomillashtirish borasidagi nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan (Toshken davlat transport universtiteti rektorining 2024-yil 28-oktyabrdagi “292-U” sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning joriy etilishi natijasida talabalarda ishlab chiqarish va transport sohalarida samaradorlik tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

transport tizimining amaldagi holatini “me’yoriy holat” (o‘sish va barqaror rivojlanishga mos), “inqiroz oldi holati” (hushyorlikni talab etuvchi holat) va “inqiroz holati” (tezkor islohotlar zarur bo‘lgan holat) ko‘rinishida tavsiflash orqali resurslar taqsimoti, investitsiya siyosatini yo‘naltirish va tarmoqdagi strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos yaratuvchi Z-score natijasi orqali belgilash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025 yil 10 yanvardagi 2/322-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida sohadagi iqtisodiy inqiroz holatlarini barvaqt aniqlash va inqirozga qarshi chora-tadbirlarni o‘z vaqtida qabul qilish imkoni yaratilgan;

transport tizimining iqtisodiy samaradorlik indeksini baholash uslubi me’yorlashtirilgan qiymat va vazn koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda “zarar holati” (0,00-0,19), “past samaradorlik” (0,20-0,39), “o‘rtacha samaradorlik” (0,40-0,59), “iqtisodiy barqaror samaradorlik” (0,60-0,79), “strategik samaradorlik” (0,80-1,00) shkalalarini kiritish asosida takomillashtirish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025 yil 10 yanvardagi 2/322-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida transport sohasi korxonalari faoliyatining samaradorlik darajasi bo‘yicha past samaradorlik holatidagi korxonalar sonini qisqartirish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda sohaning umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari 10-12% yaxshilash imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda transportga kiritilgan investitsiyalar hajmi, asosiy fondlar va yuk aylanmasi hamda yo‘lovchi aylanmasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni

ifodalovchi ekonometrik model asosida ular dinamikasining 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2025 yil 10 yanvardagi 2/322-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida transport sohasining strategik taraqqiyot yo‘nalishlarini, uzoq muddatli istiqbolda yuk aylanmasining 20-25%, yo‘lovchi aylanmasining esa 15-18%ga o‘sishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ishlar, shulardan OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 ta resaublika, 2 ta xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, to‘qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.